

TARIX O'QITISH METODIKASINING DOLZARB MUAMMOLARI

M. Ahrorova ¹, U. O'rinov ²*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada Gumanitar fanlar asosan Tarix fani hozirgi zamon talaba va o'quvchilari tomonidan, Zerikish va Sovuqonlik" bilan munosabat bildirilayotganligi va bu fanlarga o'quvchilarning qiziqishining so'nib borayotganligi sabablarini o'rganish va buni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar va g'oyalar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: tarix fani, pedagogic faoliyat, tarbiya, metodika.

doi: <https://doi.org/10.2024/9afbwo95>

Barchamiz bilamizki Tarix fani "O'tmish va o'tgan voqia- hodisalarni o'rganuvchi olimdir".

Lekin hech o'ylab ko'rganmizmi? "Tarix fani faqatgina o'tmishni o'rganib qolmay balki, butun boshli xalqlarning, davlatlarning kelajagini iqtisodiyoti va bo'lajak amalga oshiriladigan siyosatini ham hattoki dunyo taqdirini ham hal qiluvchi bilimlar majmuasi ekanligini hayolimizga ham keltirmaymiz.

Xo'sh, bu gaplarni va tarix fanini qanchalik muhim ahamyatga egaligini nima bilan isbotlash mumkin keling bir tasavvur qilib ko'raylik: siz 4-5 yoshli bolasiz va o'yinchoq lego g'ishtlaridan qasr qurmoqchisiz. Birinchi urinishda o'xshamadi qurgan qasringiz buzilib ketdi. Ikkinchi urinishda esa xunuk va beso'naqay chiqdi va bu sizga yoqmay uni buzib tashlab qayta qurishni boshladingiz, nihoyat uchinchi urinishda o'zingiz xoxlagan "Qasrni" qura oldingiz.

Xo'sh endi bir o'ylab ko'ringchi 4-5 yoshli bolakay o'ziga yoqqan ideal „qasrini" qurish nimalar qildi. Adashdi- qayta qurdi, xatolaridan saboq olib uni takrorlamaslikka harakat qildi lekin shunda ham bazi kamchiliklari chiqdi. Bu esa bolaga yoqmadi shuning uchun ham ataylab buzib tashlab yana qayta qurishni boshladi va bunisi oldingilaridan ko'ra mukammalroq va chiroyliroq bo'ldi, tabiiyki bola maqsadiga erishdi va endi "Yana u qasr qurmoqchi bo'lsa adashmay osongina qura oladi. Chunki avvalgi hatolari esida va xulosa chiqarishga o'rgangan.

Xo'sh buni mavzuga nima aloqasi bor?

Gap shundaki aynan shu „Yosh bola! Lego g'ishtlaridan o'yinchoq Qasr qurish jarayonida butun bir o'zining tarixiy davrini bosib o'tdi. Xatolar qildi, adashdi va qilgan xatolaridan xulosa chiqardi. Shu tariqa bola xotirasida „Qasr qurish jarayonidagi holatlar va xatolar bir „ Kichik Tarix " bo'lib qoldi.

Yosh bolalar ham xar xil bo'ldi, bir xillari qilgan xatolarini darxol anglab yanada yaxshiroq o'yinchoqlar qurishga harakat qilishsa boshqalari esa qaysarlik qilib aybini o'zidan emas boshqalar va o'yinchoqlaridan qidirishadi va ularni buzib yer bilan yakson qilishadi. Ko'pincha kattalar uchun bu yosh bolalarning odatiy holati bo'lib tuyuladi. Lekin bu holatni

¹ Ahrorova Madina Rahmatovna, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

² O'rinov Umidjon, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

chuqurroq va falsafiy yondashib anglashga harakat qilsak „Yosh bolalar aslida kattalarning oynada ko'ringan aksidir“.

Masalan: Qadimgi davirdan hozirgi kungacha shohlar va davlat hukumdorlari ham xuddi shunday siyosat yuritishgan va yuritishmoqda „Bir xillari xatolaridan hulosa chiqarib uni takrorlamaslikka va ijobiy islohotlar o'tkazishga harakat qilishsa, Ikkinchi xildagilari esa huddi „Yosh boladek“ qaysarlik qilib garchi qilgan ishlari hato va notog'ri bo'lsada mag'rurlik qilib o'zgartirmay o'z boshiga o'zi yetishgan“. Mana, Tarix fani nima uchun kerak! O'tmishda yuz bergan hatolaridan hulosa chiqarish uchun oldingilaridan yaxshiroq jamiyat yaratish uchun, asosiysi „O'z qasrimizni“ yani hozirgi dunyoyimizni yanada mukammalroq va chiroyliroq qurish uchun xizmat qilishi kerak!

Afsuski, hozirgi kunda ta'lim tizimimizda tarix fanida o'quvchilarga faqatgina „yil-sanalar va bo'lgan tarixiy voqealarni yodlatish va shularni savol javob qilish bilan cheklanib qolishmoqda. Bu esa o'quvchilar o'rtasida tarix fanidan zerikishni va yoqtirmaslik hissini uyg'otishga xizmat qilmoqda. Hattoki, Oliy talim tizimidagi tarix yo'nalishida o'qiydigan talabalar o'rtasida ham o'zlarining yo'nalishlari bo'lishiga qaramay bu fandan „soyish va zerikish“ kabi tushkunlik kayfiyatlari paydo bo'lmoqda. Endi o'zingiz bir o'ylab ko'ring „O'zi hohlab tarixchi bo'laman deganlar o'rtasida o'z fanidan soyish va zerikish kayfiyati paydo bo'lib tushkunlikka tushib turgan bir davrida boshqa yo'nalish talabalaridan nimani ham kutish mumkin,,.

Ayniqsa pedagogika institutlarida tahsil oladigan talabalar bu jarayonni boshidan kechirib turganda va o'qtuvchi bo'lib ishga kirganlarida ular qanday o'quvchilarni tarbiyalashdagi va tarbiyalashmoqda.

Endi o'zingiz o'ylab ko'ring o'z sohasiga qiziqishi bo'lmagan soyuqqon o'qtuvchi qanday qilib madaniyatli va ma'rifatli o'quvchilarni tarbiyalashi mumkin. Bugunki kun maktablaridagi achchiq haqiqat shuki ko'pchilik o'qtuvchilar „45“ minutlik darsni tugashini o'quvchilardek intiqlik bilan kutadigan bo'lib qolishgan. Gap faqatgina tarix fani haqida emas boshqa fanlarda ham shunday ahvol kuzatilmqda.

Ming afsuslar bo'lsinkim, tarix darsi hozirgi kunda o'quvchilar ni qiziqtiradigan fanlar sikrasiga kirmay qoldi.

Yosh kelajak avlodlarimiz „o'z qobig'iga o'ralib“ qolishgan. Hayolida pul topish, mashina olish, uylanish va mashhur bo'lish kabi o'tkinchi o'y-hayollar kezib yuribdi.

Nimaga? Nima uchun? kabi savollarni javobii topilmay qolyabdi. Nahotki bizning Xalqimiz, aholimiz shunday ahvolga kelib qolgan bo'lsa. Tog'ri hayot shavqatsiz faqat o'lim olish va kitob o'qish bilan oila boqib bo'lmaydi. Xalqimizning umumiy fikricha „Tarixni bildik nima bilmadik nima kunimiz o'taveradi“.

Aslida xalqimizning bunday holatga shunchalik qisqa va tor fikrlaydigan bo'lib qolganiga bosqinchi " Sovet Ittifoqi tuzumining Xalqimiz tarixini madaniyatini unittirishga qaratilgan dahshatli siyosati sabab bo'lgan.

Misol uchun XX asrning 20-40 yillarida yurtimizda o'tkazilgan „Alifbo islohotlari ham aynan xalqimizni asirlar davomida saqlanib kelayotgan Milliy qadiryatlarimiz noyob va bebaho yozma asrlarimizdan Maxtum qilish uchun o'z tariximizni unitdirish uchun qilingan g'arazli reja edi“

Ma'lumot o'rnida: Sovet hokimiyatining dastlabki o'n yillik siyosatida O'zbekistonda alifboni 3 marta o'zgartirildi. Bu holat tub aholisini savodsiz qilishga uning asriy qadiryatlaridan mahrum qilib sovet madaniyati ruhida tarbiyalashga ham ruslashtirish siyosatini amalga oshirishni mo'ljallagan edi. 1921-1922-yillarda dastlab arab imlosi isloh qilinib ancha soddalashtirish masalasi ko'rildi. 1929-yil may oyida Samarqantda bo'lib o'tgan adiblar, imlochilar va yetakchi ziyolilar konferensiyasida o'zbek yozuvi arab girafikasidan

lotin girafikasiga o'tkazish haqida qaror qabul qilinadi va 1-dekabirdan „Lotin“ yozuviga o'tiladi.

1940-yil 8- mayda esa lotin yozuvidan „krill“ yozuviga o'tkazish to'g'risida yangi qaror qabul qilinadi. Bu bilan Sovet hukumati millatimizning ko'p asirlik ijodiy va manaviy merosini yo'qqilinishini Buyuk adib va mutafakkir ajdodlarimiz Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshbandiy, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalarning buyuk adabiy merosini yo'qotish bilan asosiy maqsadi esa „Xalqimizni milliy va manaviy o'zligidan ayirish edi“ Afsuski, bu maqsad amalga oshirildi. Natijada esa hozirgi kunda o'z tarixiga milliy qadriyatlariga befarq loqayd avlodlarning shakllanishida olib keldi.

Mana nima uchun hozirgi zamon yoshlari Tarix faniga qiziqishmaydi asosiy sababi esa ulardan oldingi Ikki avlodning yani Ota va Bobolarining Sobiq ittifoq mafkuraviy tizimi asosida „ongsizlik botqog'iga botgan holatda“ tarbiyalangani edi. „Qush uyasida ko'rganini qiladi“ deganlaridek hozirgi zamon yoshlari ham ularning ta'siri ostida ulg'ayishmoqda.

Bizning asosiy maqsadimiz ularni bu zararli „loqaydlik va mavratsizlik“ to'ridan olib chiqish buyuk ajdodlarimiz ilmiy va manaviy merosini tanish va o'zligini anglash o'zini qanday buyuk daholar va allomalar avlodi ekanligini anglatishdan iborat.

Buni amalda oshirishda:

„Tarix fanini faqatgina shunchaki o'qitish va yodlatish bilan hech narsada erishib bo'lmaydi Tarixni shunchaki o'qitish emas o'quvchilarimizning ongiga, ruhyatiga shunday singdirishimiz kerakki ular bu bilimlarni o'z farzandlariga o'rgatib o'rtada uzilib qolgan 100 yillik manaviy qadriyatlarimiz zanjirini ulashlari kerak.

Bunday natijaga erishish uchun Tarix darslarida chet el zamonaviy metodlaridan milliy qadriyatlarimiz va vatanparvarlik ruhi bilan boyitgan holda foydalanishimiz va kerak bo'lsa yangi turdagi metodlarni yaratishimiz kerak.

Mening fikrimcha:

Tarix fanini o'quvchilar uchun yanada qiziqarliroq fan bo'lishi uchun „Tarixiy voqealarni o'quvchilar o'rtasida muhokama qilishga undashimiz ularning Tarixiy voqealarga o'z munosabatini bildirishga va Agarda uni qo'lida bu tarixiy jarayonlarni o'zgartirish imkoniyati bo'lsa nimalar qilishini so'rashimiz kerak,

Bu usul orqali Tarix darsiga o'quvchilarni mehrini oshirgan bo'lamiz va eng asosiysi O'quvchilar tarixiy voqealarga o'z munosabatlarini bildirish uchun o'zi bilmagan holatda beixtiyor ravishda shu mavzularni o'qib chiqa boshlaydi va bunga majbur bo'ladi.

Shu tariqa bir yo'la ham o'quvchining ongini o'stirgan bo'lamiz va bilim saviyasini oshirgan bo'lamiz.

„Yodlatish va savol-javob qilish“ usuli ancha eskirgan va samarasiz usulga aylanib bormoqda. Ayniqsa tarix fanini o'qitishda bu usulda foyda bermaydi deb o'ylayman.

Mening fikrimcha: Tarix fani o'quvchilar uchun „Yangi bir dunyoga aylanishi kerak“ o'quvchi bu dunyoda yashashi, fikirlashi va miyyasida jamiyatimiz „Manaviy taraqqiyotiga“ foyda keltiradigan yangi g'oyalarni shakllantirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. R. Shamsutdinov, SH. Karimov „ Vatan tarixi“ 3-Kitob. T; „Sharq“. 2010.-287-288- betlar.
- [2]. X. Sodiqov. „ Amir Temur saltanatida xavsizlik xizmati“ .T; „ART FLEX“ nashiryoti. 2016. 431-432-betlar.
- [3]. www.ziyouz.com kutubxonasi

[4]. „Ushbu maqolada mualliflarning shaxsiy fikirlari va yangi g'oyalari aks ettirilgan” Ahrorova Madina, O'rinov Umidjon. UzFin Tarix 3-kurs talabasi. Tel; 998 90 456 6849, E-pochta umidjon.urinov.02@mail.ru

[5]. Анбар отиннинг “қоралар фалсафаси” асарида ижтимоийфалсафий қарашлармадина ахророва Имом Бухори сабоқлари <https://www.bukhari.uz/?p=11443>

[6]. Sharq mumtoz shoiralari asarlarida ijtimoiy-falsafiy qarashlar, hamda gender tengligi masalasi. (nozimaxonim ijodi misolida) Ahrorova Madina Rahmatovna “Sharq tillarini o'qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya volume 2 | special issue 24 issn 2181-1784 sjif 2022: 5.947 | asi factor

[7]. G'arb va sharq ayollarining ijtimoiy-falsafiy qarashlaridagi tafovutlar Ergasheva Sevinchbonu Ahrorova Madina ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: даврий анжуманлар:” фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар. Декабрь 2022 2-қисм Тошкен

[8]. Акиндиқов Н. Б. Specific characteristics of uzbek historical works // Международный журнал искусство слова. – 2023. – Т. 6. – №. 2.